

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14429684>

"BEGONA": INSON VA ABSURD HAYOT TO'QNASHUVI

Chorshanbiyeva Nafosat

Nurmanova Zamira

TerDU talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Albert Kamyuning "Begona" asari tahlil qilinib, asardagi absurdizm falsafasi, bosh qahramonning ichki kechinmalari va jamiyat bilan munosabatlari o'r ganiladi. Merso obrazining o'ziga xosligi va uning hayotga nisbatan begonalik hissi absurd dunyo nazariyasining asosiy jihatlari orqali tahlil qilinadi. Maqola asar mazmuni va Kamyuning falsafiy qarashlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Albert Kamyu, Begona, Absurdizm, Merso, Begonalik falsafasi, Inson o'zligi, Falsafiy roman, Ekzistensializm.

Albert Kamyu fransuz adabiyotining yirik vakili bo'lib, u o'z asarlarida insonning hayotga, o'limga va jamiyatga bo'lgan munosabatini o'rganishga katta e'tibor bergan. Kamyuning 1942-yilda yozilgan "Begona" romani zamonaviy ekzistensializm falsafasining eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar inson hayotining absurdligini va shaxsning jamiyat tomonidan qanday cheklanishini o'rganadi. Asar bir vaqtning o'zida ekzistensializm va absurd falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning begonalashuvi va o'zligiga erishish yo'lida qanday qiyinchiliklarga duch kelishini yoritadi.

Asar bosh qahramoni Merso ismli oddiy odam bo'lib, hikoya uning onasining o'limi bilan boshlanadi. Mersoning onasi vafot etganida u juda befarq va hissiyotsizdek ko'rinadi. Onasining dafn marosimida ham u odatiy g'amginlikni ko'rsatmaydi, bu esa

uni o‘rab turgan odamlarning e’tiroziga sabab bo‘ladi. Dafndan so‘ng Merso o‘z kundalik hayotiga qaytadi va hech qanday o‘zgarishsiz yashayveradi. Asar davomida u o‘z sevgilisi Mari bilan munosabatlarini davom ettiradi, do‘sti Raymondning muammolariga aralashadi va tasodifan bir arab yigitini o‘ldiradi. Ushbu qotillik tasodifan sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, uning hayoti butkul o‘zgarib ketadi. Merso sudga tortiladi va uning xatti-harakatlari jamiyat tomonidan qattiq tanqid qilinadi. Sud jarayonida faqat qotillik emas, balki uning onasining dafnidagi befarqligi ham muhokama qilinadi. Bu yerda Kamyu sud tizimi orqali jamiyatning axloqiy qadriyatlarini ko‘rsatadi. Sud jarayoni davomida Mersoning ichki dunyosini tushunishga hech qanday urinish bo‘lmaydi, aksincha, u jamiyat tomonidan “begona” sifatida rad etiladi.

Kamyu “Begona” asari orqali absurd hayotni tasvirlash va insonning hayotga bo‘lgan munosabatini o‘rganishni maqsad qilgan. Absurd tushunchasi Kamyuning falsafiy qarashlarida muhim o‘rin tutadi. Bu tushuncha inson hayotining ma’nosizligini va bu ma’nosizlikni qabul qilish orqali erkinlikka erishish mumkinligini ifodalaydi. Mersoning hayotga bo‘lgan munosabati absurdlikning aniq namunasi sifatida gavdalanadi. U hayotning ma’nosizligini anglab, undan qochmasdan, o‘z haqiqatini qabul qiladi. Asarda bu ayniqa qotillikdan keyin va sud jarayonida yaqqol ko‘rinadi. Merso atrofidagi jamiyatdan, odamlardan va o‘z his-tuyg‘ularidan begonalashgan. U o‘z hislarini yashirmaydi va odamlardan farqli ravishda jamiyatning qoidalariiga moslashishni xohlamaydi. Buning oqibatida u jamiyat uchun begona va tushunarsiz shaxs sifatida qabul qilinadi. Merso o‘limini qabul qilish orqali haqiqiy erkinlikka erishadi. Hayotning oxiriga yetayotgani uning uchun qo‘rquv emas, aksincha, hayotni chinakam tushunish uchun imkoniyatga aylanadi. Bu o‘limga nisbatan ekzistensial yondashuvning bir ko‘rinishidir.

Asarda jamiyat shaxsga qarshi turuvchi kuch sifatida tasvirlangan. Jamiyat uchun inson o‘zini belgilangan axloqiy normalar va qadriyatlarga moslashtirishi kerak. Merso bu qoidalarga amal qilmasligi tufayli jamiyat tomonidan jazolanadi. Sud jarayonida uning inson sifatidagi qadriyatları emas, balki jamiyatga moslashmaganligi ko‘proq

tanqid qilinadi. Kamyu shu orqali jamiyatning ikkiyuzlamachiligin va insonning shaxsiy erkinligini cheklovchi tizim ekanligini ochib beradi. Merso o‘zini juda oddiy va hissiy jihatdan beqaror bo‘lmagan odam sifatida namoyon qiladi. Uning ichki dunyosi murakkab bo‘lsa-da, tashqi dunyo uchun tushunarsiz. U sevgi, do‘stlik, o‘lim kabi hayotiy masalalarga ham hissiyotsiz munosabat bildiradi. Asarda uning bu hissiyoti orqali insonning ichki va tashqi hayoti o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi.

“Begona” asari zamonaviy dunyoda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Insonning o‘z hayot ma’nosini izlash jarayoni, jamiyatning shaxsiy erkinlikka to‘sinqilik qilishi kabi masalalar bugungi kunda ham muhimdir. Asar nafaqat falsafiy mazmuni, balki insoniyatga universal savollarni o‘rtaga tashlagani bilan ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Albert Kamyuning “Begona” asari inson hayoti, ma’nosи va jamiyat bilan aloqasi haqidagi falsafiy savollarga bag‘ishlangan. Asar o‘quvchini inson hayotining absurdligini qabul qilish va o‘zligini anglash jarayoni haqida o‘ylashga undaydi. Merso obrazi orqali Kamyu inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Asarning asosiy g‘oyasi shundaki, inson hayotning absurdligini qabul qilib, o‘zligini topa olgan taqdirdagina chinakam erkinlikka erishadi. “Begona” — bu jamiyatdagi odatiy qoidalarga moslashmagan insonning portreti bo‘lib, u bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alber Kamyu "Begona". Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti
2. U.Jo‘raqulov "Qiyosiy adabiyotshunoslik" Toshkent 2021
3. Berdiyayev.N "Erkinlik falsafasi"
3. Ziyo.uz kutubxonasi.